

INFLYATSIYA TURLARI VA MOHIYATI

Ramazanov Hayotbek Sherzod o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezis inflyatsiyaning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Inflyatsiya iqtisodiyotdagi umumiy narxlar darajasining ortishi natijasida pul qadrsizlanishini ifodalaydi va turli omillar ta’sirida shakllanadi. Ishda talab va taklif inflyatsiyasi, shuningdek, surunkali, yashirin, galopiruyushchiy va giperinflyatsiya kabi turlari o‘rganiladi. Shuningdek, inflyatsiyaning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri hamda uni boshqarish va nazorat qilish usullari tahlil qilinadi. Pul-kredit siyosati va fiskal choralar inflyatsiyani barqarorlashtirishdagi asosiy mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: inflyatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, pul qadrsizlanishi, iqtisodiy barqarorlik.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda inflyatsiya muhim makroiqtisodiy jarayonlardan biri bo‘lib, uning darajasi va dinamikasi mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Inflyatsiya deganda, umumiy narxlar darajasining oshishi natijasida pulning real xarid qobiliyatining pasayishi tushuniladi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga, balki aholi turmush darajasi, investitsiyalar hajmi va milliy valyutaning barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Inflyatsiya tabiiy iqtisodiy hodisa bo‘lib, uning past darajadagi va nazorat ostidagi shakli iqtisodiy o‘sishga turtki bo‘lishi mumkin. Biroq, inflyatsiya me’yordan oshib ketgan hollarda u iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqarib, aholi jamg‘armalarining qadrsizlanishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga va iqtisodiy ishonchsizlikning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, inflyatsiyaning sabablari, turlari va oqibatlarini chuqur tahlil qilish zarur.

Inflyatsiya turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin. Ba’zi hollarda u ortiqcha talabning vujudga kelishi natijasida yuzaga keladigan talab inflyatsiyasi bo‘lsa, ba’zi hollarda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi bilan bog‘liq taklif inflyatsiyasi shaklida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, inflyatsiya iqtisodiy jarayonlarning turli omillar ta’sirida rivojlanishi natijasida surunkali inflyatsiya, yashirin inflyatsiya, shiddatli inflyatsiya va giperinflyatsiya kabi turlarga ajratiladi:

Talab inflyatsiyasi – ortiqcha talabning vujudga kelishi natijasida yuzaga keladi. Iste’mol va investitsion talabning ortishi narxlar oshishiga sabab bo‘ladi.

Taklif inflyatsiyasi – ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi natijasida yuzaga keladi. Ish haqi, xomashyo narxlari va energiya resurslari qimmatlashishi bu jarayonga ta’sir qiladi.

Surunkali inflyatsiya – uzoq muddatli va barqaror narx oshishi jarayoni.

Yashirin inflyatsiya – iqtisodiyotda narxlarning davlat tomonidan tartibga solinishi natijasida yuzaga keladigan yashirin narx oshish jarayoni.

Shiddatli inflyatsiya – narxlarning tezkor va sezilarli oshishi.

Giperinflyatsiya – juda yuqori sur’atda narxlarning oshishi, iqtisodiy inqirozning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har qanday davlat inflyatsiyani nazorat qilish bo‘yicha o‘ziga xos choralarni qo‘llaydi. Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati va hukumat tomonidan olib boriladigan fiskal siyosat inflyatsiyani boshqarishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Ushbu choralar inflyatsiyani maqbul darajada ushlab turish, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Inflyatsiya iqtisodiyotning markaziy muammolaridan biri bo‘lib, ko‘plab olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Jumladan:

Milton Fridman inflyatsiyani asosan pul miqdorining ortishi bilan bog‘laydi va uning asosiy sababi noto‘g‘ri yuritilgan pul-kredit siyosati ekanligini ta’kidlaydi. U talab inflyatsiyasi haqida shuni qayd etadiki, agar iqtisodiyotda pul massasi haddan tashqari ko‘paytirilsa va iste’molchilarning xarid qobiliyati ortsa, talab inflyatsiyasi vujudga keladi. Fridman inflyatsiyani nazorat qilishning eng samarali usuli sifatida pul taklifini doimiy va nazorat ostida ushlab turishni taklif qiladi.

John Maynard Keynes esa, inflyatsiyani davlat xarajatlari va iqtisodiy talab ortishi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, talab inflyatsiyasi iqtisodiyotda ish bilan bandlik darajasi oshganda va ishlab chiqarish quvvatlari to‘liq ishlayotganda yuzaga keladi. Keynes davlatning fiskal siyosati orqali iqtisodiy faollikni boshqarish va inflyatsiyani nazorat qilish muhimligini ta’kidlaydi. Uning yondashuvi bo‘yicha soliqlar va davlat xarajatlarini moslashtirish orqali talab inflyatsiyasini kamaytirish mumkin.

Iqtisodchi olimlar Samuelson va Nordhaus inflyatsiyaning turli shakllarini batafsil tahlil qilib, talab va taklif inflyatsiyasiga alohida e’tibor qaratadilar. Ularning fikricha:

Talab inflyatsiyasi – iste’molchilar va korxonalar talabining ortishi natijasida yuzaga keladi, natijada ishlab chiqarish hajmi talabni qondira olmay qoladi va narxlar oshadi.

Taklif inflyatsiyasi – ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, masalan, xomashyo, ish haqi yoki energiya narxlarining oshishi natijasida yuzaga keladi. Taklif inflyatsiyasi, odatda, ishlab chiqaruvchilar o'z xarajatlarini iste'molchilarga yuklaganda paydo bo'ladi.

Samuelson va Nordhaus inflyatsiyani nazorat qilishda Markaziy bankning monetar siyosati va hukumatning fiskal siyosati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar.

Ushbu yondashuvlar inflyatsiyani chuqur tushunish va uni samarali nazorat qilish uchun muhim nazariy asoslarni taqdim etadi.

Tahlil va natijalar. Inflyatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan o'lchanadi. Narxlar indeksi joriy davrdagi iste'mol narxlarini bazis davrdagi iste'mol narxlariga nisbati orqali aniqlanadi.

$$NI = \frac{TNj}{TNb} \times 100\%,$$

Bu yerda NI -narxlar indeksi

TNj -joriy davrdagi iste'mol tovarlar narxi;

TNb -bazis davrdagi iste'mol tovarlar narxi.

Narxlar o'zgarishini hisobga olish qamroviga ko'ra narxlar indekisining quydagi turlarini hisobga olish mumkin:

-iste'mol narxlar indeksi

-ulgurji narxlar indeksi

-narxlar indeksi – YaIM defiyatori;

-eksport va import narxlar indeksi.

Narxlar indeksidan foydalangan holda Inflyatsiya sur'atini (IS) quydagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$IS = \frac{TNj - TNb}{TNb} \times 100\%$$

Masalan , iste'mol tovarlarning narx indeksi 2024 yilning yanvarida 100,9%ga , 2023-yilning yanvar oyida 108,9%ga teng bo'lsa, Inflyatsiya sur'ati quydagicha bo'ladi

$$Inflyatsiya\ sur'ati = \frac{108,9 - 100,9}{100,9} \times 100 = 7,9\%.$$

Ba'zi bir mamlakatlarda Inflyatsiya sur'ati juda yuqori bo'lganligi sababli , narxlarning qancha vaqt mobaynida 2 barovar o'sishi mumkinligi (70 miqdor qoidasi) yordamida aniqlanadi.

Xulosa. Inflyatsiya iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim omillardan biri bo'lib, uning darajasi va dinamikasi iqtisodiy siyosatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, inflyatsiya pul qadrsizlanishiga olib keluvchi murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, uning sabablari va oqibatlari har xil omillar bilan bog'liq. Inflyatsiya iqtisodiyotni

barqaror boshqarish uchun muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, uning nazoratsiz oshishi makroiqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Inflyatsiyaning oldini olish va uni boshqarish uchun monetar va fiskal choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot inflyatsiya jarayonlarini chuqur tushunishga hamda samarali iqtisodiy siyosat shakllantirishga hissa qo‘shadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milton Fridman – "Inflation and Monetary Policy" (1970)
2. John Maynard Keynes – "The General Theory of Employment, Interest and Money" (1936)
3. Paul Samuelson va William Nordhaus – "Economics" (1985)
4. Markaziy banki Respublika O‘zbekiston (2023). "Monetary Policy and Inflation Report."
5. Jahon Banki (2023). "Global Economic Prospects: Inflation and Economic Outlook."